

O'SMIRLARDA DAXLDORLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRUVCHI IJTIMOY- PSIXOTRENING DASTURI

Bekkulova Dilfuza Mannonovna

Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14619544>

Annotatsiya. Ushbu maqola o'smir yoshdagilar uchun ijtimoiy-psixotrenning dasturini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, daxldorlik, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Dasturda ijtimoiy-psixologik yondashuvlar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'smirlarning o'zaro munosabatlarni yaxshilash va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatlari oshiriladi. Maqolada treningning tuzilishi, maqsadlari va asosiy mashg'ulotlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Daxldorlik, O'smir psixologiyasi, Ijtimoiy moslashuv, Psixotrenning, Shaxsiy rivojlanish, Emotsional intellekt, Jamoaviy o'zaro munosabatlar, O'zini anglash, Kompetensiyalarni rivojlantirish, Motivatsiya va ishtirok, Rivojlanish strategiyalari, O'smir davrida shaxsiy fazilatlar, Ijtimoiy ko'nikmalar.

Kirish. Jahonda kundan kunga jadallashib, integrallashib borayotgan globallashuv jarayonlari fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, ma'rifatli jamiyat, ma'naviyatli jamiyat, demokratik jamiyat, daxldor fuqaro, fidoyi fuqaro, madaniyatli fuqaro, erkin fuqaro kabilarni kuchaytirish orqali yoshlarda islohotlarga nisbatan daxldorlik fazilatini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlashga, ijtimoiy faollikka, mafkuraviy kurashchanlikka rag'batlantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash va ularning yechimlarini yaratishni taqozo etmoqda. Turli ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan ogoh bo'lish, asl milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashini shakllantirishni ijtimoiy-psixologik tahlil qilib, ilmiy asoslash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda yosh barkamol, istiqbolli avlodning jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ustuvor yo'nalishlarni keng targ'ib qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mazkur masalada zamonamizda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurash kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda turli xil ichki va tashqi, ochiq va yashirin tahdidlarga nisbatan o'smirlarda daxldorlik fazilatini shakllantirish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishning psixologik omillarini tadqiq qilish, o'smirlarda yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga nisbatan daxldorlik fazilatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili: Daxldorlik masalasi Sharq mutafakkirlari Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriylarning asarlari o'rganilgan. Mahalliy tadqiqotchilar E.G'oziev, M.Quronov, N.Safaev, F.Nabiev, Q.Nazarov, Sh.To'raev, A.Xolbekov, S.Mamashokirov, V.M.Karimova, A.Jabborov, A.Erkaev, O.Bozorov, N.Majidov, Sh.Abdullaeva, O.Musurmonova, S.Nishonova, U.Mahkamov, F.Ravshanov, X.Jabborov va E.Shermonov kabilarni tadqiqotlarida daxldorlik fazilating g'oyaviy, siyosiy, falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlari o'rganilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan, E.B.Pirogova, L.I.Sokolova, Y.S. Mishenko, S.V. Ponomarev, A.T.Kamzanova, Ye.Koloskova, Z.A. Semenova, T.P. Nesterova, R.A. Doljenko, T.Karapetyan, S.Maddi, D.A.Leontev, T.Yu.Bazarov, B.L.Eremin, O.B.Antonov,

N.I.Shatalova, G.Latfullin, O.Gromova, S.Ogurov, A.N.Suxov, A.A.Derkach, N.G.Maloshonoklarning tadqiqotlarida yoshlarning g'oyaviy-siyosiy dunyoqarashi xususiyatlarini ilmiy pedagogik-psixologik jihatdan o'rgananlar.

Daxldorlik fazilatini shakllanishi muammosiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirish; o'smirlarda islohotlarga daxldorlik fazilatini shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik xususiyat va omillarni aniqlash (yosh, jins, hudud kesimida); o'smirlarning islohotlarga daxldorlik fazilatlariga bog'liq bo'lgan shaxsliyk xususiyatlari, irodaviy sifatlar, kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasi, shaxs yo'nalganligi, refleksiya darajalari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish; o'smirlarda islohotlarga nisbatan daxldorlik fazilatini shakllanganlik darajalarini aniqlash; o'smirlarda daxldorlik fazilatini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash; o'smirlarda daxldorlik fazilatini shakllanishi bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

O'smirlik davri shaxs rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda ularning psixologik va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Daxldorlik, empatiya, va boshqalarga yordam berishga tayyorlik kabi fazilatlar ijtimoiy o'zaro aloqalarda muhim ahamiyatga ega. Ushbu fazilatlarining rivojlanishi o'smirlarning jamoada samarali faoliyat ko'rsatishi va kelgusida mas'uliyatli fuqaro bo'lib shakllanishi uchun muhimdir.

Ijtimoiy-psixotrening – bu o'smirlar bilan ishlashda innovatsion va samarali usul bo'lib, u o'z-o'zini anglash, boshqalarni tushunish va samarali muloqotni rivojlantirishni maqsad qiladi. Ushbu maqolada o'smirlarda daxldorlik fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan trening dasturi ishlab chiqiladi.

Dastur maqsadi va vazifalari. Asosiy maqsad: o'smirlarning daxldorlik, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat kabi ijtimoiy-emotsional fazilatlarini rivojlantirish orqali ularning jamiyatga moslashuvchanligini oshirish.

Vazifalari:

- O'smirlarga empatiya va hamdardlik fazilatlarini rivojlantirish uchun psixologik yordam ko'rsatish.
- O'z-o'zini anglash va ijtimoiy muhitga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Mojarolarni boshqarish va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish.
- Boshqalar bilan muloqotda samimiy va hurmatli munosabatlarni shakllantirish.

Trening dasturining tuzilishi. Dastur 8 hafta davomida o'tkaziladi. Haftasiga bir yoki ikki marotaba, har biri 1,5–2 soatlik mashg'ulotlar tashkil etiladi. Har bir mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega bo'lishi maqsadga muvofiq:

1. **Kirish:** Ishtirokchilarning diqqatini jamlash va faollashtirish uchun qisqa o'yin yoki mashqlar.
2. **Asosiy qism:** Dastur mavzusiga muvofiq mashg'ulot va faoliyatlar.
3. **Yakuniy qism:** Refleksiya va his-tuyg'ularni tahlil qilish.

Xulosalar: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, daxldorlik fazilati odamning ijtimoiy mavjudot sifatidagi manfaatlaridan kelib chiqib, o'z funksiyasini bajarishi yoki bajarmasligini hal qiluvchi ilk signal, tanlash nuqtasi bo'lib, aynan mazkur funktsiya uning psixologik tabiatidir. Bugungi kunda o'quvchilar orasidagi islohotlarga, fan-ta'limga, oila va jamiyatda bo'layotgan e'tiborsizliklari tufayli tiklab bo'lmas ofat, jinoyat, halokatlar sodir bo'lish ehtimoli yo'q emas ekan, daxldorlik fazilati va uning psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish orqali mazkur fazilatni

har bir o'zbekistonlik yosh yigit-qizning kompetensiyaviy fazilatiga aylantirish o'ta muhim ijtimoiy psixologik zarurat deb aytishimiz mumkin.

O'smirlarda daxldorlik fazilatini namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari yuzasidan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida, ilg'or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan, ammo aynan o'smirlarda daxldorlik fazilatini namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari muammosi psixologiyada o'zining muayyan nazariy-metodologik bazasiga ega bo'lsa-da, ushbu muammoga daxldor tadqiqotlar ko'lami hali o'zining mukammal yechimlariga ega bo'lmaganligini ko'rsatadi.

References:

1. Avezov O.R. Shaxs psixologiyasi va kouching. Darslik, "Kamolot" nashriyoti, Buxoro. 2025 yil. 436 bet.
2. Avezov O.R. Oila psixoterapiyasi nazariyalari. Darslik, "Kamolot" nashriyoti, Buxoro. 2024 yil. 316 bet.
3. Avezov O.R., Ruziyev N.I. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari. Darslik, "Kamolot" nashriyoti, Buxoro. 2024 yil. 256 bet.
4. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik, "KAMOLOT" nashriyoti, Buxoro. 2023 yil. 332 bet.